


MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2026-YIL
SENTYABR / 9-SON, I-QISM



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google
Scholar

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

OpenAIRE



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ФИЛИАЛ В Г. ТАШКЕНТЕ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, sentyabr.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afurovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

ASOSIY VOSITALARNING DASTLABKI QIYMATINI SHAKLLANTIRISHNING XALQARO STANDARTLAR ASOSIDAGI METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH.....	9
Nematova Dilnoza Azamatovna	
TIJORAT BANKLARIDA MIJOZGA YO'NALTIRILGAN BIZNES-JARAYONLARINI TRANSFORMATSIYA QILISHNING HOZIRGI HOLATI.....	15
Erdonayev Aliqul Xalimovich	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СИСТЕМЫ СТРАТЕГИЧЕСКОГО УПРАВЛЕНИЯ ГОСТИНИЧНЫМИ ПРЕДПРИЯТИЯМИ НА ОСНОВЕ ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКИХ МЕХАНИЗМОВ В УЗБЕКИСТАНЕ	23
Нигматова Сугдиена Жалолиддин кизи	
SANOAT KORXONALARINING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA ZAMONAVIY MARKETING MEKANIZMLARIDAN FOYDALANISH.....	29
Bazarova Mamlakat Supiyevna	
XORIJIY ILMIY STAJIROVKALARNI TASHKIL ETISH JARAYONLARINI RAQAMLASHTIRISHNING TIZIMLI TAHLILI VA KONSEPTUAL MODEL.....	33
Tojiyev S.A., Mashg'ulotov J.A., Usmonov U.M.	
HUDUDLAR IQTISODIYOTIDAGI NOMUTANOSIBLIK LARNI BARTARAF ETISHNING INSTITUTSIONAL VA IQTISODIY MEKANIZMLARI.....	44
Toshov Mirzabek Hakimovich	
O'ZBEKISTONDA YENGIL SANOAT KORXONALARINING EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISH	50
O'rinova Umida Qodirjonovna	
QISHLOQ XO'JALIGIDA ULTRABINAFSHA C NURLANISH TEXNOLOGİYALARINING QO'LLANILISHI: ZAMONAVIY HOLATI, SAMARADORLIGI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI	54
Ibroximov Sanjarbek, Nematov Nurillo, Xakimov Dilmurod	
TEKNOGEN CHIQINDILAR ASOSIDA MNA-1 VA MNA-2 FAOL KIMYOVIY QO'SHIMCHALARINI SINTEZ QILISH VA SEMENT XAMIRINING REOLOGIK KO'RSATKICHLARINI BOSHQARISH.....	64
Muhamedov Nodir Abdug'aniyevich	
IKKI TOMONLAMA TA'MINLANADIGAN ASINXRON GENERATOR ASOSIDAGI SHAMOL ENERGETIKA TIZIMINI MATEMATIK MODELASHTIRISH VA VEKTORLI BOSHQARISHNI TADQIQ ETISH.....	69
To'ychiyev Furqat, Rashidov Nuralibek, Abduxalilov Abdumannop	
СЕЙСМОСТОЙКОСТЬ МАЛОЭТАЖНОГО ЗДАНИЯ С ПУЛТРУЗИОННЫМ СТЕКЛОПЛАСТИКОВЫМ КАРКАСОМ И ДЕФОРМАЦИОННО-РАЗВЯЗНЫМИ 3D-ПЕЧАТНЫМИ СТЕНАМИ.....	80
Акбаров Дильшод, Акрамов Хуснитдин	
LEGIRLANGAN SILIKAT SHISHADA ZEEBEK EFFEKTIGA MNO_2 TA'SIRI	90
Soliyev Muxammadyor, Tursunova Rushana	
TIJORAT BANKLARI KREDITLASH AMALIYOTI SAMARADORLIGINI PROGNOZLASH.....	99
Eshboyev Shahobiddin Anorqul o'g'li	
O'ZBEKISTONDA ELEKTRON TIJORAT SUBYEKTLARINI SOLIQQA TORTISH TIZIMINI RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	107
Homidov Baxtiyor Rahimberdievich	
UNIVERSITET INSON KAPITALINI SHAKLLANTIRISH EKOTIZIMI SIFATIDA: DUNYO VA O'ZBEKISTONDA TA'LIM SIYOSATINING EVOLYUTSIYASI	114
Sabirov Alisher, Oqmullayev Ravshanjon	
PUTUR YETKAZMASDAN TEKSHIRISH LABORATORIYALARINI AKKREDITATSIYALASHDA STANDARTLASHTIRISH TALABLARINING AHAMIYATI.....	122
Axmedov G'ayratjon Maxmudjonovich	



QURILISH SANOATI KORXONALARIDA KORPORATIV BOSHQARUV SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING ZAMONAVIY USULLARI VA KO'RSATKICHLAR TIZIMI	129
G'iyosov Ilxom Karimovich	
KORXONALARDA INNOVATSIYALARNI BOSHQARISH: G'OYALARNI TIJORIYLASHTIRISHNING SAMARALI MEXANIZMLARI	137
Baymuradov Shoxrux, Dilmurodov Komiljon	
DAVLAT BUDJETI BARQARORLIGI VA UNGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR KLASSIFIKATSIYASI	142
Gadoyeva Nilufar Erkinovna	
KORXONALARDA EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISHDA INNOVATION MARKETING TEKNOLOGIYALARIDAN SAMARALI FOYDALANISH	148
Ikramova Nasiba Axmadovna	
TO'G'RIDAN-TO'G'RI XORIJIY INVESTITSİYALARNING MAMLUKAT IQTISODIY O'SISHIGA TA'SIRI.....	153
Mizamova Umida Jamoliddin qizi	
ERKIN IQTISODIY ZONALARNING ASOSIY RIVOJLANISH KO'RSATKICHLARINI PROGNOZLASH VA PROGNOZ NATIJALARINI BAHOLASH (BUXORO VILOYATI MISOLIDA)	158
Ibragimov Aziz Turayevich	
TAQSIMLANGAN IOT TIZIMLARIDA KECHEKISHGA SEZGIR VAZIFALARNI CHEKKA HISOBLASH (MEC) TUGUNLARIGA OPTIMAL YO'NALTIRISH USULLARI	164
Xolmatov Numonjon Meliboyevich	
ОРГАНИЗАЦИОННО-МЕТОДИЧЕСКИЙ МЕХАНИЗМ ФОРМИРОВАНИЯ КАЧЕСТВЕННОЙ ФИНАНСОВОЙ ИНФОРМАЦИИ ПРЕДПРИЯТИЙ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН В УСЛОВИЯХ РАЗВИТИЯ СИСТЕМЫ НСФО	171
Джамбакиева Гулнора Сайфутдиновна	
RESEARCHING METHODS FOR THE AUTOMATIC DETECTION OF OFFENSIVE LANGUAGE BASED ON ARTIFICIAL INTELLIGENCE.....	181
Fayzullaev Nurbek, Kuchkarov Muslimjon	
MINTAQAVIY TRANSPORT TIZIMINI RIVOJLANTIRISH OMILLARI VA UNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	186
Ikromov Elyor Ibodulloyevich	
TUMANLAR SANOAT SALOHİYATINI INTEGRAL BAHOLASH ASOSIDA KICHIK SANOAT ZONALARINI JOYLASHTIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MODELI (BUXORO VILOYATI MISOLIDA).....	193
Yusupova Nigina Djurayevna	
TURIZM SOHASI BARQAROR RIVOJLANISHINI DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA SOLISHNING TASHKILIY-IQTISODIY VA INSTITUTSIONAL MEXANIZMLARI SAMARADORLIGINI BAHOLASH.....	199
O'sarov Abdulla Davronqulovich	
TASHQI SAVDO JARAYONLARINI BOSHQARISHDA "INTEGRATSIYALASHGAN TARIF" INTERAKTIV XIZMATIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH	207
Muzaffarov Azimjon Ashraf o'g'li	
"NAVOIY KMK" AJDA INNOVATION FAOLIYATNI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMINING TASHKILIY- IQTISODIY KOMPONENTLARI.....	212
Kurbanova Mehriniso, Masharipov Ma'sud	
HUDUDIIY ENERGETIKA TA'MINOTI TIZIMIDA IQTISODIY SAMARADORLIKNI OSHIRISHNING NEYRO- RAVSHAN EKONOMETRIK MODELLARI: QASHQADARYO VILOYATI ELEKTR ENERGETIKA TIZIMIDAN DALILLAR	219
Jo'rayev Farrux Do'stmirzayevich	
BARQAROR IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASHDA MOLIVAVIY AXBOROT VA BUXGALTERIYA HISOB MEXANIZMLARI	224
Abdullayeva Sevaraxon Xasanovna	
AUTORSING XIZMATLARI RIVOJLANISHINING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI VA UNGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR	232
Mirxonov Mirfoziljon Olimjon o'g'li	



MAKROIQTISODIY KO'RSATKICHLAR TUSHUNCHASI VA ULARNING TASNIFI	237
Erdonova Maxfuza Mardonovna	
KO'P QAVATLI BINOLARDA LIFT SHAXTASI KONSTRUKSIYASINING SEYSMIK VA DINAMIK YUKLARGA BIRGALIKDAGI TA'SIRINI TAHLIL QILISH	242
Boymirzayev Azizbek Asqarali o'g'li	
ULTRATOVUSH DIAGNOSTIKA ROBOTI UCHUN AVTOMATIK GEL SIQISH TIZIMINI KONSTRUKTIV-TEKNOLOGIK LOYIHALASH VA VIRTUAL TAJRIBA ASOSIDA SAMARADORLIKNI BAHOLASH	249
Nodirbek Ruziyev, Zafar Botirovich Jurayev	
SANOAT AVTOMATLASHTIRISH TIZIMLARINING ZAMONAVIY RIVOJLANISH YO'NALISHLARI VA ULARNING TAHLILI	255
Sayilxonov Xudoyor Narzullo o'g'li	
SUV RESURSLARI CHEKLANGAN SHAROITDA HUDUDIY IXTISOSLASHUVNI TAKOMILLASHTIRISHNING USLUBIY ASOSLARI (BUXORO VILOYATI MISOLIDA).....	263
Sodiqova Nigora Turayevna	
CREDIT PORTFOLIO IN COMMERCIAL BANKS AS A FACTOR IN IMPROVING ASSET QUALITY AND STABILITY	270
Baymuratova Zina Aqilbekovna	
ВЛИЯНИЕ ОПТИМИЗАЦИИ НАЛОГОВОГО БРЕМЕНИ НА ЭКОНОМИЧЕСКИЙ РОСТ И ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКУЮ АКТИВНОСТЬ.....	274
Хакимов Улугбек Абдуллаевич	
KATTA TIL MODELLARI YORDAMIDA DASTURIY TEST SSENARIYLARINI GENERATSIYALASHDA GALLYUTSINATSIYALAR MUAMMOSI VA ULARNI KAMAYTIRISH YONDASHUVLARI.....	280
Matkarimov Bobirjon Erkinboyevich	
INVESTISIYALARNI JALB ETISHDA INVESTISIYA SIYOSATI VA INVESTISIYA MUHITI	286
Sodiqov Maqsudjon Abdolimovich	

INVESTISIYALARNI JALB ETISHDA INVESTISIYA SIYOSATI VA INVESTISIYA MUHITI



Sodikov Maqsudjon Abdolimovich

Namangan davlat texnika universiteti
Iqtisodiyot kafedrası magistranti

Annotatsiya. Maqolada investitsiyalarni jalb etishda investitsiya siyosati va investitsiya muhitining ahamiyati tahlil qilingan. Investitsiya muhitiga ta'sir etuvchi asosiy siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va infratuzilmaviy omillar yoritilgan. Shuningdek, BERI indeksi va xalqaro kredit reytinglari asosida investitsiya muhitini baholash masalalari o'rganilgan. O'zbekistonda investitsion jozibadorlikni oshirish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: investitsiya, investitsiya siyosati, investitsiya muhiti, investitsion jozibadorlik, xorijiy investitsiyalar, BERI indeksi, kredit reytingi.

Аннотация. В статье проанализировано значение инвестиционной политики и инвестиционного климата в привлечении инвестиций. Освещены основные политические, экономические, социальные и инфраструктурные факторы, влияющие на инвестиционный климат. Также рассмотрены вопросы оценки инвестиционного климата на основе индекса BERI и международных кредитных рейтингов. Разработаны научно-практические предложения по повышению инвестиционной привлекательности Узбекистана.

Ключевые слова: инвестиции, инвестиционная политика, инвестиционный климат, инвестиционная привлекательность, иностранные инвестиции, индекс BERI, кредитный рейтинг.

Abstract. The article analyzes the importance of investment policy and the investment climate in attracting investments. The main political, economic, social, and infrastructural factors influencing the investment climate are examined. The study also considers the assessment of the investment climate based on the BERI index and international credit ratings. Scientific and practical proposals for enhancing Uzbekistan's investment attractiveness have been developed.

Keywords: investment, investment policy, investment climate, investment attractiveness, foreign investment, BERI index, credit rating.

KIRISH

Bozor iqtisodiyotini modernizatsiya va diversifikatsiyalash sharoitida iqtisodiyotga investitsiyalarni jalb etish va ulardan samarali foydalanish muhim ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyat kasb etadi. Investitsiyalar iqtisodiyotda qayta ishlab chiqarish sur'atlari va hajmini oshirish, ilmiy-texnik taraqqiyotni jadallashtirish, ishlab chiqarish salohiyatini kengaytirish hamda aholi bandligini ta'minlashda muhim omil hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, mamlakatda investitsion faollikni oshirish va xorijiy kapitalni jalb etish uchun qulay investitsiya muhitini shakllantirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi [4].

O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 25-dekabrda qabul qilingan O'RQ-598-son «Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida»gi Qonunida investitsiya siyosatiga investitsiyalarning zarur darajasi va tuzilmasini ta'minlash, investitsiya faoliyati subyektlarining investitsiya manbalarini topish va ulardan foydalanishning ustuvor yo'nalishlarini belgilashga qaratilgan o'zaro bog'liq chora-tadbirlar majmui sifatida ta'rif berilgan. Mazkur huquqiy asos investitsiya faoliyatini tartibga solish, investorlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish hamda investitsiyalarni rag'batlantirishda muhim ahamiyatga ega [1].

Mavzuning dolzarbligi investitsiyalarni jalb qilish jarayonida mamlakatdagi siyosiy barqarorlik, iqtisodiy holat, huquqiy kafolatlar, moliyaviy infratuzilma, mehnat resurslari, transport-kommunikatsiya tizimi va davlat siyosati kabi omillarning muhim o'rin tutishi bilan belgilanadi. Investitsiya muhiti qanchalik qulay bo'lsa, investorlar uchun risk darajasi shunchalik past bo'lib, mamlakatga investitsiya oqimini oshirish imkoniyati yuzaga keladi [4; 5].



Tadqiqotning maqsadi O'zbekistonda investitsiyalarni jalb etishda investitsiya siyosati va investitsiya muhitining ahamiyatini o'rganish, investitsiya muhitiga ta'sir etuvchi asosiy omillarni tahlil qilish hamda uni baholashning zamonaviy usullarini o'rganishdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Investitsiyalarni jalb qilish, investitsiya siyosati va investitsiya muhiti masalalari xorijiy hamda mahalliy iqtisodchi olimlar tomonidan keng tadqiq etilgan. Xususan, I. A. Blank investitsiyalarni boshqarish, investitsion qarorlarni qabul qilish va investitsiyalarning samaradorligini baholash masalalarini tadqiq etgan. A. V. Vaxobov, Sh. X. Xajibakiev va N. G. Muminovning ishlarida xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning iqtisodiy asoslari, ularning milliy iqtisodiyotdagi o'rni va investitsion muhitning ahamiyati yoritilgan [4].

D. A. Ednovskiy, V. A. Babushkin va N. A. Baturina tadqiqotlarida korxonalarning investitsion jozibadorligini baholash va boshqarish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Shuningdek, BERI metodologiyasi mamlakatdagi siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va operatsion risklarni baholash orqali investitsiya muhitini kompleks tahlil qilish imkonini beradi. Xalqaro kredit reytinglari esa investorlarga mamlakat va qarz oluvchilarning kreditga layoqatliligi hamda moliyaviy majburiyatlarni bajarish qobiliyati haqida muhim ma'lumot taqdim etadi [8].

Mavjud ilmiy tadqiqotlar tahlili investitsiya siyosati va investitsiya muhitining nazariy asoslari yetarlicha o'rganilganini ko'rsatadi. Biroq O'zbekiston sharoitida investitsiya muhitiga ta'sir etuvchi omillarni kompleks baholash, BERI indeksi va xalqaro kredit reytinglaridan foydalanish, shuningdek, investitsion jozibadorlikni oshirishning amaliy mexanizmlarini takomillashtirish masalalari yanada chuqur tadqiq etishni talab etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda O'zbekistonda investitsiyalarni jalb qilishda investitsiya siyosati va investitsiya muhitining ahamiyatini aniqlash maqsadida tizimli va qiyosiy tahlil usullaridan foydalanildi. Investitsiya faoliyatiga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlar, ilmiy adabiyotlar va xalqaro baholash metodikalari o'rganildi. Shuningdek, investitsiya muhitiga ta'sir etuvchi siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, infratuzilmaviy va institutsional omillar tasniflandi [1; 4; 7].

Tadqiqot jarayonida BERI indeksi va xalqaro kredit reytinglari investitsiya muhitini baholash vositalari sifatida o'rganildi. BERI indeksida siyosiy barqarorlik, iqtisodiy o'sish, valyuta barqarorligi, xorijiy investitsiyalarga munosabat, davlat boshqaruvi, infratuzilma, kredit resurslaridan foydalanish va boshqa omillar hisobga olinishi tahlil qilindi. Olingan natijalarni umumlashtirish asosida O'zbekistonda investitsion jozibadorlikni oshirish bo'yicha takliflar shakllantirildi [7; 8].

Tahlil va natijalar

Investitsiya muhiti investor tomonidan muayyan mamlakatga kapital kiritish to'g'risida qaror qabul qilishda hisobga olinadigan siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, huquqiy va infratuzilmaviy shart-sharoitlar majmuini ifodalaydi. Investitsiya muhiti qanchalik qulay bo'lsa, investorning tadbirkorlik riski shunchalik past bo'ladi va investitsiyalar oqimini ko'paytirish imkoniyati ortadi [4; 6]. Aksincha, investitsiya muhitining beqarorligi investorlar uchun risklarni oshiradi va kapital kiritishga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Investitsiya muhitiga ta'sir etuvchi omillarni shartli ravishda siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va infratuzilmaviy omillarga ajratish mumkin. Siyosiy omillarga davlatning investitsiya siyosati, siyosiy barqarorlik, xalqaro kelishuvlarga rioya qilish va iqtisodiyotga davlat aralashuvi darajasi kiradi. Iqtisodiy omillarga iqtisodiy o'sish sur'atlari, inflyatsiya, valyuta kursining barqarorligi, soliq va bojxona siyosati, kredit resurslarining qiymati kiradi. Ijtimoiy omillar aholining xorijiy investitsiyalarga munosabati, mehnat resurslarining sifati va ijtimoiy barqarorlik bilan bog'liq. Infratuzilmaviy omillarga transport, energetika, telekommunikatsiya va moliyaviy infratuzilmaning rivojlanganlik darajasi kiradi [4; 7] (1-jadval).

1-jadval

Investitsiya muhitiga ta'sir etuvchi asosiy omillar

№	Omillar	Asosiy tarkibiy qismlari
1	Siyosiy	Siyosiy barqarorlik, davlat siyosati, huquqiy kafolatlar
2	Iqtisodiy	Iqtisodiy o'sish, inflyatsiya, valyuta kursi, soliq va kredit siyosati
3	Ijtimoiy	Mehnat resurslari, aholi munosabati, ijtimoiy barqarorlik
4	Infratuzilmaviy	Transport, energetika, telekommunikatsiya, bank-moliya tizimi
5	Institutsional	Davlat boshqaruvi, byurokratik to'siqlar, biznes muhiti

Investitsiya muhitini baholashda xalqaro amaliyotda BERI indeksi muhim vositalardan biri hisoblanadi. BERI — Business Environment Risk Intelligence — metodologiyasi mamlakat investitsiya muhitini turli risk omillari asosida baholashga xizmat qiladi. Unda siyosiy risk, operatsion risk va mamlakatdagi huquqiy-iqtisodiy sharoitlarni ifodalovchi omillar hisobga olinadi. Indeksda siyosiy barqarorlik, xorijiy investitsiyalarga munosabat, milliyashtirish xavfi, devalvatsiya, iqtisodiy o'sish, valyuta konvertatsiyasi, shartnomalar ijrosi, mehnat xarajatlari, transport va aloqa infratuzilmasi hamda kredit resurslaridan foydalanish imkoniyatlari kabi mezonlar baholanadi [7] (2-jadval).

2-jadval
BERI indeksi¹

№	Mezonlar	Salmog'i %
1	Siyosiy barqarorlik: kutilmagan hukumat to'ntarishlari imkoniyatlari va ularning tadbirkorlik faolligiga ta'sirini baholaydi	12
2	Xorijiy investitsiyalar va foydaga munosabat: xususiy tadbirkorlarga tegishli ijtimoiy ehtiyojlarga bo'lgan xarajatlar hajmi	6
3	Milliyashtirish: beg'araz ekspropriatsiya imkoniyatlaridan to mahalliy hamiyatlarga imtiyozlar berishgacha	6
3	Devalvatsiya: devalvatsiya ta'siri hamda korxona faoliyatiga devalvatsiyaning ta'sirini yumshatuvchi choralarning hayotiyiligi	6
4	To'lov balansi: hisoblar balansi va umumiy balansga hamda xorijiy investorlarning daromadlariga ta'sir etuvchi omillar	6
5	Rasmiyatchilik masalalari: davlatning iqtisodiyotga aralashuvi darajasi, bojxona rasmiyatchiliklarini amalga oshirilishi, valyuta o'tkazishlari va boshqa shunday operatsiyalar	4
6	Iqtisodiy o'sish sur'atlari: yillik yalpi mahsulot ishlab chiqarish sur'atlarining o'sishi 3%, 3-6%, 6-10% va 10%dan yuqori chegaralarda	10
7	Valyutaning konvertirlangani: milliy valyutaning xorijiy valyutaga almashtirish imkoniyati hamda milliy valyutaning (korxonalarga zarur bo'lgan darajada) valyutalar bozoridagi o'rni	10
8	Shartnomani amalga oshirish imkoniyati: shartnomaga amal qilish imkoniyati hamda til va urf-odatlardagi farq natijasida qiyinchiliklarning yuzaga kelishi	6
9	Ish haqi va mehnat unumdorligiga xarajatlar: ish haqi darajasi, mehnat unumdorligi, ishga qabul qilish tartibi	8
10	Ekspertlar va marketing xizmatlaridan foydalanish imkoniyati: korxonalarga yuridik, buxgalteriya, marketing bo'yicha maslahatlar berish, texnologiya va qurilish ishlarini amalga oshirish sohalarida maslahatlar kutish imkoniyati	2
11	Aloqa va transportni tashkil etish: faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va ularning filiallari orasidagi transport yo'llari va aloqa tizimini (mamlakat ichidagini ham) tashkil etish va foydalanish imkoniyati. Transport infratuzilmasini baholash	4
12	Mahalliy boshqaruv va hamkor: boshqaruvning turli masalalarini yechishda o'z kapitali bilan qatnashish va hamkorlikda faoliyat yuritishi mumkin bo'lgan mahalliy hamkorlarning soni va imkoniyatlari	4
13	Qisqa muddatli kredit: xorijiy hamkorlarga qisqa muddatli kreditlar berish va ulardan foydalanish imkoniyati	8
14	Uzoq muddatli kredit va shaxsiy kapital: hamkorlar tomonidan nizom kapitaliga o'z ulushlarini qo'shish shartlari va milliy valyutada uzoq muddatli kredit berish shartlari	8

O'zbekiston Respublikasi investitsiya muhitini BERI indeksi asosida shartli baholash natijalari ham investitsion muhitning kuchli va zaif tomonlarini aniqlash imkonini beradi. Mavjud hisob-kitoblarda siyosiy barqarorlik va xorijiy investitsiyalarga munosabat nisbatan ijobiy baholangan bo'lsa, devalvatsiya, to'lov balansi, rasmiyatchilik, valyuta konvertatsiyasi va kredit resurslaridan foydalanish kabi omillar investitsion risk nuqtai nazaridan alohida e'tibor talab qiladi [7] (3-jadval).

¹ Imomov H.H. "Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish" o'quv qullanma. "IQTISOD –MOLIYA" nashriyoti, 186 bet, 2010 yil



3-jadval

O'zbekiston Respublikasi investitsiya muhitining BERI indeksi asosida shartli baholanishi

№	BERI indeksi mezonlari	Bahosi	Salmog'i, %	Indeks
1	Siyosiy barqarorlik	4	12	0,48
2.	Xorijiy investitsiyalar va foydaga munosabat	3	6	0,18
3.	Milliylashtirish	2	6	0,12
4.	Devalvatsiya	0	6	0
5.	To'lov balansi	1	6	0,006
6.	Rasmiyatchilik masalalari	1	4	0,04
7.	Iqtisodiy o'sish sur'atlari	1	10	0,01
8.	Valyutani konvertirlanganligi	1	10	0,01
9.	Shartnomani amalga oshirish imkoniyati	3	6	0,18
10.	Ish haqi va mehnat unumdorligiga xarajatlar	2	8	0,16
11.	Ekspertlar va marketing xizmatlaridan foydalanish imkoniyati	1	2	0,02
12.	Aloqa va transportni tashkil etish	1	4	0,04
13.	Mahalliy boshqaruv va hamkor	3	4	0,12
14.	Qisqa muddatli kredit	1	8	0,08
15.	Uzoq muddatli kredit va shaxsiy kapital	2	8	0,16
16.	JAMI		100	1,61

Investitsiya muhitini baholashda xalqaro kredit reytinglari ham muhim ahamiyatga ega. Xorijiy investorlar mamlakatning kredit reytingi orqali iqtisodiyotning barqarorligi, qarz majburiyatlarini bajarish imkoniyati va moliyaviy risklar haqida dastlabki tasavvurga ega bo'ladilar. Standard & Poor's va Moody's kabi xalqaro reyting agentliklari tomonidan beriladigan reytinglar investitsiya qarorlarini qabul qilishda muhim axborot manbai hisoblanadi [8] (4-jadval).

4-jadval

Xalqaro kredit reytinglarida qimmatli qog'ozlar ishonchliligi klassifikatsiyasi

Reyting belgilari		Reyting interpretatsiyasi
Standart Poor's	Moody's	
AAA	Aaa	O'ta yuqori ishonchlilik. Foizlar va qarzning asosiy summasining to'lanish ehtimoli o'ta yuqori
AA+ AAAA	Aa1 Aa2 Aa3	Yuqori ishonchlilik. Foizlar va qarzning asosiy summasining to'lanish ehtimoli yuqori
A+ AA-	A1 A2 A3	Ishonchlilik o'rtadan yuqori. Emitentning qarzni va foizlarni to'lash imkoniyatlari yuqori, ammo iqtisodiyotni ichki barqarorligiga bog'liq
VVV+ VVV VVV-	Vaa1 Vaa2 Vaa3	Ishonchlilik yetarli darajada. Emitentning qarz va foizlarni to'lash imkoniyatlari to'lov vaqtidagi iqtisodiyotning ichki barqarorligiga bog'liq
VV+ VV VV-	Va1 Va2 Va3	Sharoitni ishonchli deb hisoblasa ham bo'ladi, ammo ichki iqtisodiy holatning beqarorligi tufayli doimo to'lamaslik xavfi mavjud
V+ V V-	V1 V2 V3	To'lamaslik xavfi yuqori. Emitentning to'lov qobiliyati cheklangan, ammo joriy vaqtdagi majburiyatlarga mos keladi

SSS+ SSS SSS-	Saa	To'lanishi ehtimoli kam yoki to'lanmaydigan majburiyatlar. Emitentning to'lov qobiliyatiga mamlakatning ichki iqtisodiy beqarorligi bilan putur yetkazilgan
S	Sa	Umuman to'lanmaydigan majburiyatlar (to'lovlarni muddatini uzaytirish yoki to'lamaslik). Emitent bankrot yoki zarar ko'rmoqda

Shundan so'ng investitsiya muhitiga ta'sir qiluvchi alohida omillarni yanada batafsil tahlil qilish mumkin. Xususan, siyosiy barqarorlik investorning uzoq muddatli rejalarini belgilashi uchun muhim shart hisoblanadi. Iqtisodiy barqarorlik, valyuta kursining prognoz qilinadiganligi, inflyatsiya darajasi va soliq-bojxona siyosati investitsiya loyihalarining moliyaviy natijasiga bevosita ta'sir qiladi.

Infratuzilmaning rivojlanganligi ham xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda muhim ahamiyatga ega. Avtomobil va temir yo'llar, elektr energiyasi, suv ta'minoti, telekommunikatsiya va bank-moliya xizmatlarining rivojlanganligi investorning operatsion xarajatlarini kamaytirishga xizmat qiladi. Shuningdek, malakali va nisbatan raqobatbardosh ishchi kuchining mavjudligi ham investitsion jozibadorlikni oshiruvchi omillardan biri hisoblanadi [4; 6].

Moliyaviy infratuzilmaning rivojlanganligi investorlar uchun yana bir muhim shartdir. Mamlakatda tijorat banklari, investitsiya fondlari, sug'urta tashkilotlari va kapital bozori institutlarining samarali faoliyat yuritishi investitsiya loyihalarini moliyalashtirish imkoniyatlarini kengaytiradi. Shu bilan birga, byurokratik to'siqlarni kamaytirish, davlat xizmatlarini raqamlashtirish va investitsiya loyihalarini amalga oshirish jarayonlarini soddalashtirish investitsion muhitni yaxshilashga xizmat qiladi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, investitsiya muhitini yaxshilashda faqat bitta omilga e'tibor qaratish yetarli emas. Siyosiy barqarorlik, makroiqtisodiy barqarorlik, huquqiy kafolatlar, infratuzilma, mehnat resurslari, moliyaviy tizim va davlat boshqaruvining samaradorligi o'zaro uyg'un holda ta'minlanishi lozim. Bunday yondashuv mamlakatning investitsion jozibadorligini oshirish va xorijiy kapital oqimini barqarorlashtirish imkonini beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan tadqiqot natijalari investitsiyalarni jalb qilish samaradorligi mamlakatda shakllangan investitsiya siyosati va investitsiya muhitiga bevosita bog'liq ekanligini ko'rsatdi. Qulay investitsiya muhiti investorlar uchun risklarni kamaytiradi, kapital kiritishga bo'lgan ishonchni oshiradi va investitsion faollikni rag'batlantiradi. Shuning uchun O'zbekistonda investitsiya siyosatini takomillashtirish bilan bir qatorda siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, infratuzilmaviy va institutsional omillarni kompleks ravishda yaxshilash muhim hisoblanadi.

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

- investitsiya loyihalarini amalga oshirishda byurokratik va ma'muriy to'siqlarni yanada qisqartirish;
- xorijiy investorlar uchun huquqiy kafolatlar va mulk huquqini himoya qilish mexanizmlarini kuchaytirish [1];
- kapital bozori va investitsiya fondlarini rivojlantirish orqali investitsiyalarni moliyalashtirish manbalarini kengaytirish;
- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari uchun uzoq muddatli moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlarini oshirish;
- transport, energetika, telekommunikatsiya va moliyaviy infratuzilmani rivojlantirish;
- BERI indeksi va xalqaro kredit reytinglari kabi xalqaro baholash vositalaridan investitsiya muhitini muntazam monitoring qilishda foydalanish [7; 8];
- xorijiy investorlar uchun axborot shaffofligini oshirish va investitsiya loyihalari haqida ochiq ma'lumotlar bazasini takomillashtirish.

Umuman, O'zbekistonning investitsion jozibadorligini oshirish investitsiya siyosatining barqarorligi, huquqiy kafolatlarning ishonchligi, makroiqtisodiy barqarorlik, zamonaviy infratuzilma va samarali moliyaviy tizimni shakllantirish bilan uzviy bog'liq. Mazkur yo'nalishlarni kompleks ravishda rivojlantirish xorijiy investitsiyalar oqimini ko'paytirish, yangi investitsion loyihalarni amalga oshirish va mamlakat iqtisodiyotining uzoq muddatli barqaror o'sishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 25-dekabrda «Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida»gi O'RQ-598-son Qonuni. <https://lex.uz/ru/docs/-4664142?ONDATE=22.02.2024%2000>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi «2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi PF-60-son Farmoni. <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 17-yanvardagi «Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili» Davlat dasturi to'g'risida»gi PF-5635-son Farmoni. <https://lex.uz/docs/-4168749>



4. Vaxobov A. V., Xajibakiyev Sh. X., Muminov N. G. Xorijiy investitsiyalar. – T.: Moliya, 2010.
5. Бланк И. А. Инвестиционный менеджмент. – Киев: Эльга-Н, Ника-Центр, 2001.
6. Эдновицкий Д. А., Бабушкин В. А., Батурина Н. А. Инвестиционная привлекательность предприятия: оценка и управление. – М.: Дело, 2003.
7. Business Environment Risk Intelligence (BERI). Country Risk Assessment and Investment Climate Methodology. – Geneva: BERI S.A.
8. Moody's Investors Service. Rating Symbols and Definitions. – New York: Moody's Corporation.
9. World Bank. Global Investment Competitiveness Report 2019/2020: Rebuilding Investor Confidence in Times of Uncertainty. – Washington, DC: World Bank, 2020.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 9

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100